

TIBBIY TURIZMDA MASOFAVIY KONSULTATSIYANING SAMARADORLIGI

Rustamova Nasiba Bahodir qizi

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti

Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universitet

Farxodova Shohnoz Umidbek qizi

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti

Turizm (xalqaro turizm) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Azizova Nazira To'xtayevna

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti

Turizm kafedrası dotsenti, i.f.n.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy turizmning global turizm sohasidagi o'rnini, mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati va masofaviy davolash va davolanish ishlarining rivojlanish tarixi haqida so'z boradi. Muayyan yillarga bilan bog'liq ma'lumotlar statistika asosida ko'rib chiqiladi. O'zbekistonning bu sohadagi imkoniyat va sharoitlari, soha bo'yicha amalga oshirilgan ijobiy ishlar va amalga oshishi kutilyotgan rejalar hamda Prezident qarorlari, farmon va farmoyishlar ham keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: konsultatsiya, teletibbiyot, diagnostika, pandemiya, radiologiya, shoshilinch tibbiy yordam xizmati, psixiatriya, kardiologiya, onkologiya, kiber xavfsizlik, sog'lomlashtirish kurortlari, sanatoriyalar, konsilium, namoyish operatsiyalari.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИСТАНЦИОННОГО КОНСУЛЬТИРОВАНИЯ В МЕДИЦИНСКОМ ТУРИЗМЕ

Рустамова Насиба

Ташкентский государственный университет востоковедения

Институт внешней политики и международных экономических

отношений

Туризм и гостеприимство студент 1 курса

Фарходова Шохноза

*Ташкентский государственный университет востоковедения
Институт внешней политики и международных экономических
отношений
Магистрант 2 курса по направлению «Туризм» (международный
туризм)*

Азизова Назира Тохтаевна

*Ташкентский государственный университет востоковедения
Институт внешней политики и международных экономических
отношений
Доцент кафедры туризма, кандидат экономических наук*

Аннотация. В статье рассматривается роль медицинского туризма в мировой туристической индустрии, его значение в развитии страны, а также история развития дистанционного лечения и оздоровления. Данные, относящиеся к конкретным годам, анализируются на основе статистики. Представлены возможности и условия Узбекистана в этой сфере, позитивная работа, проводимая в этой области, и планы, ожидаемые к реализации, а также постановления, указы и распоряжения Президента.

Ключевые слова: консультация, телемедицина, диагностика, пандемия, радиология, скорая медицинская помощь, психиатрия, кардиология, онкология, кибербезопасность, курорты, санатории, консилиум, показательные операции.

EFFECTIVENESS OF REMOTE CONSULTATION IN MEDICAL TOURISM

Rustamova Nasiba

*Tashkent State University of Oriental Studies
Institute of Foreign Policy and International Economic Relations
Tourism and Hospitality Direction
1st year student*

Farkhodova Shokhnoza

*Tashkent State University of Oriental Studies
Institute of Foreign Policy and International Economic Relations
2nd year master in Tourism (international tourism)*

Azizova Nazira Tokhtayevna

Tashkent State Oriental Studies University

*Institute of Foreign Policy and International Economic Relations
Associate Professor of the Department of Tourism, Candidate of Economics*

Annotation. *This article discusses the role of medical tourism in the field of global tourism, its importance in the development of the country, and the history of the development of remote treatment and treatment. Data for specific years is reviewed based on statistics. Uzbekistan's opportunities and conditions in this area, positive work carried out in the field, and plans expected to be implemented, as well as presidential resolutions, decrees, and orders, are also presented.*

Keywords: *Consultation, telemedicine, diagnostics, pandemic, radiology, emergency medical service, psychiatry, cardiology, oncology, cybersecurity, health resorts, sanatoriums, consilium, demonstration operations.*

KIRISH

Tibbiy turizm bu biror mamlakatdan sayyohlar davolanish maqsadida boshqa davlatga tashrif buyurish jarayonidir. Radesh Palakurthi va Frederick J. Demicco fikricha, tibbiy turizmni turizm dasturlari bilan birgalikda mahalliy yoki xalqaro muassasalarda umumiy yoki ixtisoslashtirilgan tibbiy davolanish uchun sayohat qilish harakati sifatida aniqlash mumkin¹. Bunday sayohatlar asosan, tibbiyot sohasi rivojlangan mamlakatlarga turistlarning ko‘p sonli tashriflari, arzon tibbiy xizmat va davolanish turlaridan foydalanish, malakali shifokorlardan tibbiy konsultatsiya olish maqsadida ham tashkil etiladi. Ayrim davlatlarning turistik rivojlanishida tibbiyot turizmi eng yuqori o‘rinni egallaydi, boshqacha qilib aytganda, turizmda mazkur sohaning ulushi juda katta raqamlarda namoyon bo‘ladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) bergan ta’rifga ko‘ra esa teletibbiyot bu – davolash va kasallik, jarohatlarning oldini olish maqsadida haqiqiy ma’lumot almashish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan

¹ Radesh Palakurthi, Frederick J. Demicco. Trade-off analysis of health and wellness tourism destination attributes: an outbound U.S. consumers' perspective. 2020 y. – 2 p. https://www.hotelinteractive.com/wp-content/uploads/2020/04/NAU_Trade-Off-Analysis-of-Health-and-Wellness-Tourism-Destination-Attributes-An-Outbound-U.S.-Consumers-Perspective-2-F-DeMicco-2020-002.docx

foydalangan holda barcha tibbiyot xodimlari tomonidan masofadan xizmat ko‘rsatish².

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda barcha tibbiyot xodimlari tomonidan masofadan turib, tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda ma’lumot almashish, tashxis qo‘yish, davolash va davolanish, kasallik va jarohatlarning oldini olish³ teletibbiyot deb ta’kidlaniladi.

Mutaxassislarning fikricha, telemeditsina telekommunikatsiya texnologiyalari takomillashgani va sug‘urta to‘lovlarini to‘lash amaliyoti rivojlanishi natijasida ommalashgan yo‘nalish hisoblanadi⁴.

TADQIQOT NATIJALARI

Tibbiy turizm va teletibbiyotning rivojlanishi. Texnika va texnologiyalar o‘z navbatida tibbiyotga ham ta’sirni o‘tkazib ulgurgan bir davrda, tibbiy turizmning muhim yo‘nalishi sifatida teletibbiyot butun jahon bo‘ylab rivojlanmoqda. Radio to‘lqinlarining kashf etilishi bilan boshlangan ushbu jarayon hozirga qadar davom etmoqda va uning ahamiyati yil sayin oshib bormoqda. Uzoq yillik jarayon natijasida kelib chiqqan mazkur xizmat turi zamonaviy jamiyatda teletibbiyot yoki telemeditsina deb ataladi.


1.– rasm. Jahonda eng ko‘p uchraydigan teletibbiyot atamasining alternativ ko‘rinishlari⁵.

² World Health Organization (WHO). A Health Telematics Policy in Support of WHO’s Health-For-All Strategy for Global Health Development: Report of the WHO Group Consultation on Health Telematics, 11–16 December, Geneva 1997. World Health Organization, Geneva, 1998.

³ Ryu S (2012) Telemedicine: opportunities and developments in member states: report on the second global survey on eHealth 2009 (global observatory for eHealth series, volume 2). Healthcare Inform Res 18(2):153–155

⁴ Centers for Disease Control and Prevention. The use of telehealth and telemedicine in public health. Updated July 8, 2020. Accessed September 20, 2020. <https://www.cdc.gov/phlp/publications/topic/telehealth.html>

⁵ Andrea Maugeri, Martina Barchitta, Guido Basile, Antonella Agodi. Public and Research Interest in Telemedicine From 2017 to 2022: Infodemiology Study of Google Trends Data and Bibliometric Analysis of Scientific Literature. JOURNAL OF MEDICAL INTERNET RESEARCH. J Med Internet Res 2024 | vol. 26 | e50088 | doi: 10.2196/50088
www.sharqjurnali.uz DOI: 10.5281/zenodo.15343857



Manba: A. Maugeri, M. Barchitta, G. Basile, A. Agodi larning tadqiqotlariga asosan mualliflar ishlanmasi.

Ushbu atama va u bilan bog‘liq faoliyat turi yaqinda paydo bo‘lgan yangi tushuncha va sohadek ko‘rinsa ham, uning paydo bo‘lishi uzoq tarixga ega. Bunga 1900-yillarda radioning yaratilishi va uzoq masofalarga radioto‘lqinlarning yetib borish imkoniyati natijasida tibbiyot sohasida ham ushbu yangi texnologiyani qo‘llashga ehtiyoj sezila boshlagan. 1950-yilda radioto‘lqinlarni masofaga uzatish orqali 24 mil uzoqlikda G‘arbiy Chesterdan Filadelfiyaga uzatilgan tasvir teletibbiyot rivojlanishiga turtki berdi⁶. Shundan keyin tibbiyot sohasiga yangi texnologiya kirib keldi va u hozirgacha tibbiyot va turizm rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Yana boshqa manbalarning guvohlik berishicha, teletibbiyot davrining boshlanishida video aloqa orqali ilk bor 1959-yilda Nebraska universiteti qoshidagi tibbiyot kolleji ruhiy kasal bemorlarga masofadan xizmat ko‘rsatishgan⁷.

⁶ Field MJ. Institute of Medicine (US) Committee on Evaluating Clinical Applications of Telemedicine, Field MJ, eds. Telemedicine: Guide to Assessing Telecommunications in Health Care. Washington (DC): National Academies Press (US); 1996

⁷ Kim YS (2004) Telemedicine in the USA with focus on clinical applications and issues. Yonsei Med J 45(5):761–775. <https://doi.org/10.3349/ymj.200445.5.761>
www.sharqjurnali.uz

XX asrning boshida paydo bo‘lgan texnologiyalar natijasida butun Yevropa, Amerika va keyinchalik Osiyo qit’asida ushbu soha ancha ommalashdi va uning foydalanuvchilari soni ko‘paydi. Yangi innovatsion uskuna va texnikalarning yaratilishi esa masofadan xorijiy shifokorlarning ishtirokida hatto jarrohlik amaliyotlari ham amalga oshirilishiga olib kelmoqda. Teletibbiyotning amaliyotda va ta’lim jarayonlarida qo‘llanilishi COVID-19 pandemiyasidan oldin ham kuzatilgan. Lekin bemor va shifokorlarning eng ko‘p ehtiyojini qondirish uchun ushbu soha pandemiya davrida eng keng tarqalgan muloqot va xizmat vositasiga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining bergan ma’lumotlariga ko‘ra dunyo bo‘ylab shifoxonalarning 76%i tibbiyotning aynan ushbu turidan keng foydalanib kelishmoqda⁸. Jarrohlik, jarrohlikdan avvalgi va keyingi davolash ishlari, radiologiya, shoshilinch tibbiy yordam xizmati, psixiatriya, kardiologiya, onkologiya va boshqa tibbiyot muolojalarini ko‘rsatishda ham masofaviy shaklning o‘rni juda yuqori.

Teletibbiyotning eng rivojlangan bosqichi sifatida 2019-2022-yillar keltirib o‘tiladi. Sababi COVID-19 pandemiyasi natijasida bemorlarni davolashda bir qator davlatlar vaksina yaratish ustida masofaviy ish olib bordilar. Pandemiya davrida deyarli barcha sohalar o‘z-o‘zidan ish va xizmatlarni masofaviy tarzda amalga oshirishga majbur bo‘ldilar. Dunyo hamjamiyatining nigohi bemorlarni asrab qolish va virus yuqishining oldini olish maqsadida birgalikda vaksina ishlab chiqarish taraddudida bo‘lishdi. Xorijiy mutaxassislarning telemuloqot orqali bemorlarga xizmat qilishi, masofaviy tarzda yangi dori va davolanish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi zamonning eng muhim tadbirlaridan biri bo‘ldi. Barcha yangi mobil aloqa va tele-uskunalar bu davrda tibbiyotga yo‘naltirilgani ham teletibbiyotning ancha rivojlanishi shifokor va bemorlar o‘rtasida muloqot qilishga ijobiy xizmat ko‘rsatdi.

Teletibbiyotning ahamiyati. Malakali shifokorlar boshqa mamlakatlardagi bemorlarni davolash, ularga tibbiy konsultatsiya berish, diagnostika qilish, uydagi

⁸ Carol K Kane, Kurt Gills “The use of Telemedicine by physicians: Still the exception rather than the rule”. Health Aff (Millwood) 37(12):1923-1930. <https://doi.org/10.1377/hlth.aff.2018.05077>
www.sharqjurnali.uz

og‘ir ahvoldagi bemorlarni masofadan turib kuzatish va muolaja olib borish ishlarini yo‘lga qo‘yishdi. Teletibbiyot nafaqat bemor va shifokorlar o‘rtasidagi muloqotga, balki shifokorlarning o‘zaro muloqot qilishlari va tajriba almashishlari uchun ham xizmat qiladi.

Tibbiy turizmning mashhur yo‘nalishi sifatida qaralayotgan teletibbiyot vaziyatlarga muvofiq ikki xil usulda bemor va shifokorlarga qo‘l keladi.

Birinchisi, sinxron konsultatsiya – real vaqtdagi onlayn xizmatlar bo‘lib, bemorlar va shifokorlarning bir vaqtning o‘zida onlayn aloqaga chiqib, ma’lumot almashishi, kasallik tarixi bilan tanishishi, tashxis qo‘yishi va davolanish yuzasidan ko‘rsatmalar berishi mumkin.

Ikkinchisi, asinxron konsultatsiya. Bunda dastlab bemor mavjud muammo yuzasidan tibbiyot provayderlariga murojaat qiladi, muayyan vaqt davomida mutaxassislar tasvir va videolarni ko‘zdan kechirib, boshqa klinikalarga ma’lumotlarni uzatish orqali kasallikka tashxis qo‘yilganidan so‘ng shifokorlar bemorlarga aloqaga chiqishadi.

Yevropa va AQShdagi davolash narxlarining qimmatligi bemorlarning masofaviy shaklda tibbiyot xizmatlarini xarid qilish yoki boshqa mamlakatlarga sayohat qilishlariga sabab bo‘lmoqda. Tibbiyot xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha hozirgi kunda eng rivojlangan mamlakatlar tarkibiga Hindiston, Vengriya, Meksika, Singapur, Tailand, Braziliya, Janubiy Koreya, Turkiya davlatlari kiradi. Ularning turizm sohasidagi eng ko‘p tashrif buyuruvchilari davolanish maqsadida kelgan sayyohlar bo‘lib, bunga ushbu davlatlarda xizmat narxlari boshqa davlatlarga nisbatan arzon va sifatli darajasi sabab bo‘ladi.

2 – jadval. Sog‘liqni saqlash tizimida teletibbiyotning ahamiyati⁹.

1. Afzalliklari	Tavsifi
2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri uchrashuv	Video uchrashuvlarning real vaqtda sodir bo‘lishi kechiktirib bo‘lmaydigan kasallik oldini olish va muolajalarning o‘z vaqtida amalga oshirilishiga yordam beradi.

⁹ Mason Stoltzfus, Arshdeep Kaur, Avantika Chawla, Vasu Gupta, F. N. U. Anamika, Rohit Jain. The role of telemedicine in healthcare: an overview and update. Stoltzfus et al. The Egyptian Journal of Internal Medicine (2023) 35:49 <https://doi.org/10.1186/s43162-023-00234-z>
www.sharqjurnali.uz

3.	Sayohat vaqti va narxning tejalishi	Shifoxona va klinikilarga tashrif buyurishdagi vaqtning tejalishi, boshqa mamlakat hududiga jo‘nab ketishdagi xarajatlarning kamayishi, uydan chiqishning hojati yo‘qligi va kutish xonasida uzun navbatda turmaslik, kutish jarayonlaridagi stresslardan xalos qiladi.
4.	Tibbiy xavfsizlik	Muloqotda yuqishi mumkin bo‘lgan kasalliklarning oldini olish mumkin bo‘ladi.
5.	Qulaylik	Video chaqiruvlarga qulay nuqtadan kira olish imkoniyati, bemorlarga ishdan chiqib shifoxonaga shoshilishiga yoki ayollarga bolalarni qamrovsiz qoldirmaslik imkoniyatini taqdim etadi. Muayyan vaziyatlarda teletibbiyotning afzallik darajasi oshadi (masalan, pandemiya)
6.	Noafzalliklari	Tavsifi
7.	Internet orqali bog‘lanishda muammolar	Sifatli aloqaning mavjud emasligi bemor va mutaxassislarning vaqtini olishi mumkin.
8.	Real ko‘rikning yo‘qligi	Bu bemorlarda tuzalib ketish ehtimoliga nisbatan ishonchsizlik tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Odatda, bemorlar shifokorlardan hamdardlik kutishadi.
9.	Xavfsizlik	Onlayn xizmatlar har qanday sohada ham kiber xavfsizlik masalalarini yuzaga keltiradi. Bemorlarning ma’lumotlari kiber makonda to‘liq himoya qilinmagan bo‘lishi mumkin
10.	Rasmiyatchilik	Masofadan turib hujjatlarni rasmiylashtirish bemorlarning kutib qolishiga hamda litsenziya olishda yuzaga keladigan muammolar bemorlarning stressga tushishi sabab bo‘lishi mumkin.

Manba: M. Stoltzfus, A. Kaur, A. Chawla, V. Gupta, F. N. U. Anamika va R. Jainlarning tadqiqotlari asosida mualliflar tomonidan ishlanma.

Teletibbiyot bemorlarning ortiqcha sayohat mablag‘larini tejaydi, ularni shifokor qabulida uzoq navbatlar kutish va noqulay sharoitlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, bemorlarning konsultatsiyasi kechikib yetib kelishi, uskunalarning nosozligi, internet tarmoqlarida muammolar tug‘ilishi, turli uzulishlar va bog‘lanish jarayonida qiyinchiliklar paydo bo‘lish ehtimoli ham mavjud. Shunga qaramsdan, yillar o‘tgani sayin tibbiyotda va turizmda, umuman olganda, tibbiy turizm barcha sohalarining masofaviy shakllariga o‘tish jarayoni ancha tezlashdi.

Rivojlanish darajalariga qaramasdan, ba’zi mamalakatlarda teletibbiyotdan foydalanish deyarli ommalashmagan. Buning sababi, teletibbiyot ko‘proq bemorlardan ijtimoiy tarmoqlar va mobil internetdan keng qamrovda foydalanishni

talab qilishi va mamlakatlarda mobil aloqa bilan bog‘liq muammolar uning rivojlanishiga asosiy to‘siq bo‘lmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, **teletibbiyotning rivojlanishi natijasida kelajakda** tez yordam bo‘limlari bemorlarga tez tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda videokonsultatsiyalardan foydalanadilar hamda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonlari vaqti va soni nisbatan kamayadi¹⁰. Bir nechta sog‘liqni saqlash tashkilotlari teletibbiyotning sog‘liqni saqlash tizimidagi ahamiyatini anglab yetgan holda teletibbiyot dasturlarini o‘zlashtirmoqda. Bemorlarni masofadan boshqarish, qishloq hududlariga tez tibbiy yordam xizmatlarini intensive uzatish virtual sog‘liqni saqlashning navbatdagi asosiy sababi sifatida paydo bo‘ldi.

MUHOKAMA

O‘zbekistonda tibbiyot turizmi va teletibbiyot imkoniyatlari. Turizmning ko‘plab sohalari bilan bir qatorda tibbiy turizm ham mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ko‘plab ijobiy ta’sirlarini ko‘rsatib kelmoqda. Mamlakatda turizmning ushbu sohasiga ham xorijiy va mahalliy sayyohlarning ehtiyoji juda yuqori. Avvalo, davlat shifoxonalarida bepul malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan shifoxonalar, tabiat qo‘ynida joylashgan sog‘lomlashtirish kurortlari va sanatoriyalar, xalq tabobati orqali tabiiy vositalar yordamida davolash ishlarining olib borilishi, mamlakatning tibbiy turizm salohiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekistonga bir qator davlatlardan sayyohlarning tibbiy turizmdan foydalanish maqsadidagi sayohatlari ham yuqoridgi sabablar, ayniqsa, arzon narxlar tufayli amalga oshmoqda. Mamlakatda deyarli barcha tibbiyot turlari bilan muolaja olib boriladi. Aynan tibbiyot sohasidagi tashqi hamkorlikning yo‘lga qo‘yilganligi, xorijiy mutaxassislarning davlatga tashrifi, bo‘lajak shifokorlarning xorijda o‘qish va malaka oshirib qaytish imkoniyatlari natijasida bir qator yutuqlarga erishilgan. Ushbu ishlarning davomi sifida mamlakat prezidenti ham bir qator qonun

¹⁰ A. Haleem, M. Javaid, R. Pratap Singh, R. Suman. Telemedicine for healthcare: Capabilities, features, barriers and applications. Sensors International 2 (2021). 9 p. <https://doi/10.1016/j.sintl.2021.100117>
www.sharqjurnali.uz DOI: 10.5281/zenodo.15343857

hujjatlarini tasdiqlab, yanada yangi ijobiy ishlarga bosh bo‘lmoqdalar. Xususan, hukumatimizning qabul qilgan qarori mamlakatda tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan keng foydalanish, zamonaviy shifoxona va sanatoriyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ushbu soha bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ishlarini samarali amalga oshirishda yordam beradi¹¹. Bu kabi ishlarning amaliy natijasi sifatida dam olish va sog‘liqni saqlash ishlarini rivojlantirish maqsadida bir qator tibbiy maskanlar faoliyat yuritib kemoqda. “Chorvoq”, “Bildirsoy” turistik rekratsion zonalari, “Zomin”, “Mersian”, “Botanika”, “Turon” sanatoiyalari xalqamizga hamda xorijiy turistlarga uzoq yillardan beri xizmat qilib kelmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda 150 dan ziyod xususiy klinikalar, davolanish maskanlari aholiga tibbiy markazlar xizmat ko‘rsatib kelmoqda¹².

Mamlakatda teletibbiyot xizmatlari ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining bergan ma’lumotlariga ko‘ra 2023-yilning dastlabki 5 oyi davomida teletibbiyot orqali 200 marotaba (2022-yilga nisbatan 80 taga ko‘p) bog‘lanishlarda 800 ta maslahat, 16 ta konsilium, 27 ta namoyish operatsiyalari o‘tkazilgan va natijada 900 nafarga yaqin bemorni yashash joyida davolash imkoniyati yaratilgan¹³. Bu kabi ishlar mamlakatda amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijaviyligining yaqqol isbotidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv va innovatsiyalar davrida har qanday soha ham raqamlashish va masofaviy shaklga o‘tishga ehtiyoj sezmoqda. Ushbu globallashuv tibbiyotni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Bir qator kamchilik va xavfsizlik muammolariga qaramasdan, teletibbiyot rivojlanib, o‘zining foydalanish

¹¹ “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 23.09.2024 yildagi PQ-335-sonli qarori <https://lex.uz>

¹² Umarov Omonjon “Tibbiy turizmning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda O‘zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuv” <https://scholar.kokanduni.uz.951-957>

¹³ O‘zbekistonda shoshilinch tibbiy yordam tizimida telemeditsina orqali qancha bemor davolangani ochildi. <https://daryo.uz/2023/17/06>

imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda. Radio to‘lqinlarining kashf etilishi bilan boshlangan uchbu jarayon hozirga qadar davom etmoqda va uning ahamiyati yil sayin oshib bormoqda. Teletibbiyot O‘zbekistonda ham rivojlanish bosqichlaridan endi o‘tib borayotgan bo‘lsa ham, davlatning ushbu sohadagi imkoniyatlari yetarlicha. Bunda uning davlat boshqaruvi va turizm sharoitlari ham muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, tibbiy turizmga ham, masofaviy konsultatsiya va tibbiy xizmatlarga ham aholining deyarli barcha qatlamlari ehtiyoj sezishadi. Ushbu ehtiyojni qondirish uchun esa zamon texnologiyalaridan samarali foydalanish talab etiladi. Shu maqsadda barcha turdagi shifoxona, poliklinika va sanatoriylarni to‘liq yangi va zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va teletibbiyot uchun maxsus videomuloqot xonalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aholining ushbu xizmatdan to‘liq foydalanishini ta’minlash maqsadida, ularni to‘liq raqamlashtirilgan ro‘yxatga qo‘shish va har bir fuqaroning davolanish boshlangan jarayondan tortib, davolanishdan keying tekshiruv vaqtlari, shifokor xizmatlari va qo‘llanilgan muolajalarni yagona platforma orqali kuzatib borish hamda tahlil qilish sohada juda ko‘plab ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Bu nafaqat teletibbiyotning aholining barcha qatlami orasida keng tarqalib, telemuloqot madaniyatini oshirishga, balki har bir inson ustidan alohida nazorat olib borilishi va ularning har biriga e’tibor qaratishda juda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida internet aloqasi sustroq rivojlangan chekka hudud va qishloqlarga yuqori tezlikdagi internet tarmog‘ini ulash orqali teletibbiyot infratuzilmasini rivojlantirish mumkin. Yuqoridagi taklif va mulohazalardan kelib chiqqan holda, teletibbiyot sohasi zamonaviy tibbiy xizmatlarni kengaytirish va aholiga sifatli yordamni masofadan taqdim qilishda muhim omil bo‘lib, uning kelajakda rivojlanishi uchun kompleks taklif va mulohazalarning amaliyotga joriy etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 23.09.2024 yildagi PQ-335-sonli qarori <https://lex.uz>
2. Umarov Omonjon “Tibbiy turizmning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda O‘zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuv” <https://scholar.kokanduni.uz.951-957>
3. O‘zbekistonda shoshilinch tibbiy yordam tizimida telemeditsina orqali qancha bemor davolangani ochiqlandi. <https://daryo.uz/2023/17/06>
4. Carol K Kane, Kurt Gills “The use of Telemedicine by physicians: Still the exception rather than the rule”. Health Aff (Millwood) 37(12):1923-1930. <https://doi.org/10.1377/hlth aff.2018.05077>
5. A. Haleem, M. Javaid, R. Pratap Singh, R. Suman. Telemedicine for healthcare: Capabilities, features, barriers and applications. Sensors International 2 (2021). 9 p. <https://doi/10.1016/j.sintl.2021.100117>
6. Andrea Maugeri, Martina Barchitta, Guido Basile, Antonella Agodi. Public and Research Interest in Telemedicine From 2017 to 2022: Infodemiology Study of Google Trends Data and Bibliometric Analysis of Scientific Literature. JOURNAL OF MEDICAL INTERNET RESEARCH. J Med Internet Res 2024 | vol. 26 | e50088 | doi: 10.2196/50088
7. Field MJ. Institute of Medicine (US) Committee on Evaluating Clinical Applications of Telemedicine, Field MJ, eds. Telemedicine: Guide to Assessing Telecommunications in Health Care. Washington (DC): National Academies Press (US); 1996
8. Mason Stoltzfus, Arshdeep Kaur, Avantika Chawla, Vasu Gupta, F. N. U. Anamika, Rohit Jain. The role of telemedicine in healthcare: an overview and update. Stoltzfus et al. The Egyptian Journal of Internal Medicine (2023) 35:49 <https://doi.org/10.1186/s43162-023-00234-z>
9. Kim YS (2004) Telemedicine in the USA with focus on clinical applications and issues. Yonsei Med J 45(5):761-775. <https://doi.org/10.3349/ymj.200445.5.761>

10. Radesh Palakurthi, Frederick J. Demicco. Trade-off analysis of health and wellness tourism destination attributes: an outbound U.S. consumers' perspective. 2020 y. – 2 p. https://www.hotelinteractive.com/wp-content/uploads/2020/04/NAU_Trade-Off-Analysis-of-Health-and-Wellness-Tourism-Destination-Attributes-An-Outbound-U.S.-Consumers-Perspective-2-F-DeMicco-2020-002.docx